

KASBIY STANDART
Katok mexanizatorlari

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Zovurqazgich, yo'lsurgi, ko'pra, motokatok mashinisti" hamda "Asfalt yotqizuvchi, pnevmokatok mashinisti" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning kasbiy malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, shuningdek yo'l-qurilish va infratuzilma obyektlarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, yo'l va qoplama ishlarining sifatini ta'minlash, yo'l-qurilish texnikalaridan xavfsiz va samarali foydalanishni nazorat qilish, texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini muvofiqlashtirish, mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta'minlash, hamda yo'l-qurilish va kommunal xo'jalik sohasidagi boshqa tegishli faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

yo'l-qurilish ishlari – avtomobil yo'llari, maydonlar va boshqa transport infratuzilmasi obyektlarini qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish jarayonlari;

yo'l qoplamasi – transport vositalari harakati uchun mo'ljallangan yo'lning ustki konstruktiv qatlami;

asfalt-beton qoplama – asfalt qorishmasidan tayyorlangan, zichlangan va tekislangan yo'l qoplamasi;

yo'l poydevori – yo'l qoplamasini mustahkamlovchi va yuklamani taqsimlovchi quyi qatlam;

yo'l qatlamlari – yo'l konstruksiyasini tashkil etuvchi ketma-ket joylashgan strukturaviy qatlamlar majmui;

zichlash ishlari – yo'l qoplamasi va asos qatlamlarini belgilangan me'yorlarga muvofiq zichlashtirish jarayoni;

tekislash ishlari – yo'l sirtini belgilangan tekislik va balandlik darajasiga keltirish jarayoni;

katok (yo'l katogi) – yo'l qoplamalarini zichlash va mustahkamlash uchun mo'ljallangan maxsus yo'l-qurilish texnikasi;

motokatok – dvigatel yordamida harakatlanadigan, zichlash ishlari uchun mo'ljallangan yo'l katogi turi;

pnevmokatok – rezina shinalar yordamida zichlashni amalga oshiruvchi yo'l katogi;

vibratsiyali katok – vibratsiya mexanizmi orqali zichlash samaradorligini oshiruvchi yo'l katogi;

statik katok – faqat o'z og'irligi hisobiga zichlash ishlarini bajaruvchi katok turi;

asfalt yotqizuvchi – asfalt qorishmasini yo'l sirtiga yoyish va dastlabki tekislashni amalga oshiruvchi yo'l-qurilish mashinasi;

zovurqazgich – yoʻl chetlari va drenaj tizimlari uchun zovurlar qazishga moʻljallangan maxsus texnika;

yoʻlsurgʻi – yoʻl sirtini tozalash va tayyorlash ishlari uchun qoʻllaniladigan texnika;

koʻpra – yoʻl asosini tekislash va profil berish uchun foydalaniladigan maxsus yoʻl-qurilish mashinasi;

texnik ekspluatatsiya – texnikani belgilangan qoidalar asosida ishlatish va saqlash jarayoni;

texnik xizmat koʻrsatish – texnikaning ishga yaroqliligini saqlashga qaratilgan rejalashtirilgan texnik tadbirlar majmui;

kundalik texnik koʻrik – ish boshlashdan oldin texnikaning holatini tekshirish jarayoni;

nosozlikni aniqlash – texnikaning ishlashidagi kamchilik va buzilishlarni aniqlash jarayoni;

yoqilgʻi-moylash materiallari – texnikaning uzluksiz ishlashini taʼminlash uchun qoʻllaniladigan yoqilgʻi va moylar;

texnologik jarayon – yoʻl-qurilish ishlarini bajarishda qoʻllaniladigan ketma-ket texnik va ishlab chiqarish amallari majmui;

zichlash darajasi – yoʻl qoplamasi va asos qatlamlarining belgilangan zichlik meʼyoriga moslik darajasi;

qatlam qalinligi – yoʻl konstruksiyasining alohida qatlamining belgilangan qalinligi;

vibratsiya chastotasi – vibratsiyali katoklarda zichlash jarayonida hosil boʻladigan tebranishlar soni;

sifat koʻrsatkichlari – bajarilgan ishlarning belgilangan texnik va normativ talablarga muvofiqligini ifodalovchi mezonlar;

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlar:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-345-son qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi 275-son “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga oʻtish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori (IFUT-2);

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-oktabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasining elektr stansiyalari va tarmoqlarini texnik ekspluatatsiya qilish toʻgʻrisida”gi 609-son qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-noyabrdagi “Taqsimlash elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 652-son qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qoʻllaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Katok mexanizatorlari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Yer, asfalt, qum va boshqa qurilish materiallarini sifatli zichlash orqali yo'l va boshqa qurilish ishlarini loyihaviy talablar va standartlarga muvofiq bajarilishini ta'minlash.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	F – seksiya Qurilish va yer ishlari; 43 – Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari; 43.1. – Yo'l qurilishi va ta'miri; 43.11. – Avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash; 43.11.1. - Avtomobil yo'llarini qurish;	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Yo'llar va maydonlarni qurishda, ta'mirlashda va zichlashda ishlatiladigan pnevmatik va boshqa turdagi katoklarni boshqarish; yo'l katogini loyihaga muvofiq va texnik talablarga rioya qilgan xolda boshqarish; asfalt, qum, shag'al, gil va boshqa qatlamlarni zichlash; uskunalarining texnik holatini tekshirish va h.k.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		83422007 Zovurqazgich, yo'lsurg'i, ko'pra, motokatok mashinisti	3
		83423001 Asfalt yotqizuvchi, pnevmokatok mashinisti	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	83422007 Zovurqazgich, yo'lsurg'i, ko'pra, motokatok mashinisti	A1.3	Silliq valikli (statik va vibratsion) katokni ishlab chiqarishda ishlatish va uning ishga layoqatliligini ta'minlash.	A1.01.3	Silliq valikli (statik va vibratsion) katokdan foydalangan holda avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarning taglik va qoplamalarini zichlashtirish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish.
				A1.02.3	Silliq valikli (statik va vibratsion) katokning har smenalik va davriy texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish.
2	83423001 Asfalt yotqizuvchi, pnevmokatok mashinisti	B1.3	Asfalt yotqizgichni asfalt qorishmasini yotqizishga va uning ishga layoqatliligini ta'minlash.	B1.01.3	Asfalt yotqizgichdan foydalangan holda trotuarlar, piyodalar va velosiped yo'laklari hamda ko'cha-yo'l tarmoqlarida asfalt qoplamalarni yotqizish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish.
				B1.02.3	Asfalt yotqizgichdan foydalangan holda avtomobil yo'llarining yo'l qoplamalarini kengaytirish va rekonstruksiya qilish jarayonida asfalt qoplamalarni yotqizish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish.
				B1.03.3	Asfalt yotqizgichdan foydalangan holda turli maqsaddagi avtomobil yo'llarida asfalt qoplamalarni yotqizish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish.
				B1.04.3	Asfalt yotqizgichning har smenalik va davriy texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish.

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Zovurqazgich, yo'lsurgi, ko'pra, motokatok mashinisti	
Mashg'ulot nomining kodi:	83422	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3 daraja uchun ish staji talab etilmaydi, ammo kamida 3 oy amaliy stajirovkadan o'tgan bo'lishi zarur;	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: - Yoshi 18 dan kichik bo'lmagan shaxslar; - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; - Yong'in xavfsizligi choralari bo'yicha o'qitish; - Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish va yo'riqnomalar, mehnatni muhofaza qilish talablari bo'yicha bilimlarni tekshirish, shuningdek, zarurat bo'lganda sanoat xavfsizligi bo'yicha o'qitish; Ishga munosabat va xulq-atvor: - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - belgilangan vazifalarni ish vaqtdan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof muhitni muhofaza qilish, sanitariya gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; - jamoa bilan inoq ishlash; - o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta maxsus ta'lim, umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1.Silliq valikli (statik va vibratsion) katokning ishga tushirishdan oldin tizimlari va ish organlarini texnologik sozlash, shuningdek, avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarning taglik va qoplamalarini	

A1.3 – Silliq valikli (statik va vibratsion) katokni ishlab chiqarishda ishlatish va uning ishga layoqatliligini ta'minlash.	A1.01.3 – Silliq valikli (statik va vibratsion) katokdan foydalangan holda avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarning taglik va qoplamalarini zichlashtirish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish.	zichlashtirish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish jarayonida ularni sozlash va tartibga solish.
		2. Silliq valikli (statik va vibratsion) katokdan foydalangan holda avtomobil yo'llarining tuproq taglik va qoplamalarini zichlashtirish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish.
		3. Silliq valikli (statik va vibratsion) katokdan foydalangan holda avtomobil yo'llarining asfalt taglik va qoplamalarini zichlashtirish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish.
		4. Silliq valikli (statik va vibratsion) katokdan foydalangan holda tosh materiallarini zichlashtirish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarish.
		5. Silliq valikli (statik va vibratsion) katok yordamida avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarning taglik va qoplamalarini zichlash sifatini nazorat qilish.
		6. Silliq valikli (statik va vibratsion) katokni mexanizatsiyalashgan ishlar olib boriladigan joyga va mexanizatsiya bazasiga ko'chirish ishlarini bajarish.
		Ko'nikmalar:
		Silliq valikli (statik va vibratsion) katokni mexanizatsiyalashgan ishlar joyiga va mexanizatsiya bazasiga ko'chirishda komplektligini nazorat qilish, ekspluatatsion hujjatlar talablariga muvofiq.
		Avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarning taglik va qoplamalarini zichlashtirish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlar jarayonida katokning konstruktiv va texnologik imkoniyatlarini hisobga olish.
		Mexanizatsiyalashgan ishlar boshlanishidan oldin katokning tizimlari va ish organlarini texnologik sozlash, zichlashtiriladigan materiallar xususiyatini hisobga olgan holda.
		Mexanizatsiyalashgan ishlar davomida sinov o'tish natijalariga va jarayon davomida katok bilan taglik va qoplamalarni zichlashtirish parametr va rejimlarini sozlash.
		Mexanizatsiyalashgan ishlar davomida o'lchash asboblarning ko'rsatkichlarini nazorat qilish.
		Katokni asfalt yotqizuvchi va boshqa katok mashinistlari bilan birgalikda avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarning qoplamalarini qurish texnologik sxemasida uyg'un ishlashini ta'minlash.
		Katokni va boshqa katoklar bilan yer qoplamasini qurish texnologik sxemasida uyg'un ishlashini ta'minlash.
		Katokni avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarning taglik va qoplamalarini zichlashtirish talablari va sharoitlariga muvofiq boshqarish, shu jumladan kechki yoki qorong'i vaqtlarda.

		Mexanizatsiyalashgan ishlar davomida katokning o'lchash asboblari ko'rsatkichlarini nazorat qilish.
		Avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarning taglik va qoplamalarini zichlashtirish darajasini ko'rsatuvchi indikatorni nazorat qilish.
		Zichlanadigan asfalt qoplamaning harorat ko'rsatkichini nazorat qilish.
		Katok valklarining namlanishini nazorat qilish, asfalt taglik va qoplamalarni zichlashtirishda.
		Avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarni zichlashtirishda katokning tezlik rejimlarini belgilash.
		Katok bilan ishlash jarayonida tezlikni silliq (yumshoq) o'zgartirish.
		Har bir iz bo'yicha o'tish sonini belgilash.
		Taglik va qoplamalarni zichlashtirishda katokni to'g'ri va orqaga harakatlantirish.
		Zichlashtirish ishlarini katok bilan parallel izlar bo'yicha bajarish.
		Zichlashtirish jarayonida vibratsion rejimlarni belgilash.
		Vibratorni yoqishdan oldin har bir iz bo'yicha o'tish sonini aniqlash.
		Katok izlari usti va to'liq kenglikda asfalt qoplamalarni ortiqcha zichlashtirishni oldini olish.
		Avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarda bir tekis zichlashni ta'minlash.
		Zichlashtirish jarayonida texnologik jarayon buzilishining sabablarini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish.
		Zichlashtirish jarayonida yuzaga kelgan nuqsonlarni aniqlash va tuzatish.
		Katok bilan ishlash jarayonida avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarni vizual baholash.
		Mexanizatsiyalashgan ishlar davomida katokning radio-texnika va navigatsiya uskunalaridan foydalanish.
		Katok ish hududida xavfli zonada ishlayotgan xodimlarning xavfsizligini ta'minlash.
		Mexanizatsiyalashgan ishlar yakunida bajariladigan ishlar ro'yxatini bajarish.
		Ish boshlanishi va oxirida katok agregat va mexanizmlarining ishga layoqatliligini tekshirish.
		Katok va ish uskunalarida nosozliklar yuzaga kelishini oldini olish, shu jumladan diagnostika vositalari ko'rsatkichlariga qarab.
		Nosozlik sabablarini aniqlash va tizimdagi kichik nosozliklarni bartaraf etish.
		Nosozlik yuzaga kelganda katok va ish organlarini nazorat qilish.
		Nosozlik paytida katok ishini to'xtatish.

		Yo'l harakati qoidalariga rioya qilish.
		Mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish.
		Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish.
		Jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish.
		Yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish.
		Bilimlar:
		Silliq valikli katokning ekspluatatsiya bo'yicha ko'rsatmalar talablari.
		Silliq valikli katokni ishlab chiqarishda ishlatish qoidalari.
		Silliq valikli katok va uning asosiy agregatlari qurilmasi, ishlash prinsipi va texnik xususiyatlari.
		Silliq valikli katokning avtomatik qurilmalari, ichki diagnostika vositalari va masofadan monitoring tizimlarining qurilmasi, ishlash prinsipi va ekspluatatsiya qoidalari.
		Silliq valikli katokning mexanik, elektr va gidravlik jihozlari ishlash prinsipi.
		Silliq valikli katokning navigatsiya tizimlari konstruktsiyasi va ishlash prinsipi va tizimi sensorlari turlari va maqsadi.
		Silliq valikli katokning tizimlari va ish organlarini texnologik sozlash usullari, qoidalari va me'yorlari.
		Silliq valikli katokning tizimlarini sozlash qoidalari va me'yorlari, avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarni zichlashtirishda.
		Silliq valikli katokdan foydalanib, avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlar taglik va qoplamalarini zichlashtirish texnologiyasining xususiyatlari.
		Silliq valikli katokni boshqarish texnologik usullari.
		Ob-havo sharoitlari taglik va qoplamalarni zichlashtirish sifatiga ta'siri.
		Silliq valikli katokni ish boshlashga tayyorlash qoidalari.
		Silliq valikli katokda ishlash qoidalari.
		Silliq valikli katok bilan avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlar taglik va qoplamalarini zichlashtirish parametr va rejimlari.
		Silliq valikli katok bilan zichlashtirishda tezlik rejimlari.
		Silliq valikli katok bilan zichlashtirishda vibratsion rejimlar.
		Vibratorni yoqishdan oldin har bir iz bo'yicha o'tish soni.
		Silliq valikli katokdan foydalangan holda tuproq, qum, tosh materiallari va asfalt aralashmalar xususiyatlari (turlari, markirovkasi).
		Avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlar taglik va qoplamalarining standart konstruksiyalari.

		Katok bilan zichlashtirishda tuproq, qum, tosh materiallari va asfalt qatlami ruxsat etilgan qalinligi.
		Katok bilan turli ish sharoitlarida zichlashtirish sxemalari.
		Katok bilan avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarni zichlashtirish me'yorlari.
		Katok bilan ish davomida yuzaga keladigan nuqsonlarni oldini olish, aniqlash va tuzatish usullari.
		Mexanizatsiyalashgan ishlar yakunida katok bilan bajariladigan ishlar qoidalari va tartibi.
		Katokning zichlashtiriladigan material bilan aloqada bo'lgan qismlarini tozalash qoidalari.
		Katok bilan avtomobil yo'llari, aerodromlar va sun'iy inshootlarni zichlashtirishda sifat talablarini ta'minlash.
		Katokni favqulodda to'xtatish usullari.
		Yo'l harakati qoidalari.
		Mehnatni muhofaza qilish, ishlab chiqarish sanitariya, elektr xavfsizligi, yong'in va ekologik xavfsizlik talablari.
	A1.02.3 – Silliq valikli (statik va vibratsion) katokning har smenalik va davriy texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish.	Mehnat harakatlari:
		1. Ishchi organlar va korpus elementlarini chang, loy, bitumli bog'lovchi materiallar va turli ifloslanishlardan tozalash ishlari (statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katoklarda).
		2. Ish boshlanishidan oldin statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katokning umumiy texnik holatini vizual nazorat qilish.
		3. Barcha agregatlarning ishlash qobiliyatini tekshirish va nazorat ko'riklarini o'tkazish (statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katoklarda).
		4. Aniqlangan kichik nosozliklarni bartaraf etish ishlari (statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katoklarda).
		5. Ishchi smena davomida statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katokning tugunlari va mexanizmlari bo'yicha tekshiruv va sozlash ishlarini bajarish.
		6. Yoqilg'i-moylash materiallari va texnik suyuqliklarni qabul qilish va hisobot hujjatlarini to'ldirish.
		7. Zaxira qismlar va sarf materiallarini qabul qilish va hisobot hujjatlarini to'ldirish.
		8. Statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katokning dvigatel va maxsus tizimlarini yoqilg'i-moylash va boshqa maxsus materiallar bilan to'ldirish va tekshirish.
		9. Statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katokning kichik tugunlarini demontaj qilish va qayta montaj qilish.

	10. Ishchi uskunalarni montaj qilish (demontaj qilish) ishlari (statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katoklarda).
	11. Statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katokni qisqa muddatli saqlashga tayyorlash va joylashtirish ishlari.
	12. Statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katokni uzoq muddatli saqlashga tayyorlash va joylashtirish ishlari.
	13. Qisqa va uzoq muddatli saqlashdan keyin statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katokni texnik xizmat ko'rsatish ishlari.
	Ko'nikmalar:
	Statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katokning detallarini, tugunlarini, mexanizmlari va korpus elementlarini yuvish va tozalash ishlari.
	Tugunlar va mexanizmlarning mahkamligini tekshirish, ularni mahkamlash va sozlash ishlari.
	Katokning mexanizmlari va boshqaruv tizimlarining holatini tekshirish uchun ustaxona va o'lchov asboblari, maxsus uskuna va qurilmalarni qo'llash.
	Statik va vibratsion tekis valikli katokdagi kichik nosozliklarni aniqlash.
	Ishqalanuvchi elementlarni moylash.
	Yoqilg'i quyish vositalaridan foydalanish.
	Ishchi uskunaning tez eskiruvchi detallarini, tugunlarini va elementlarini almashtirish.
	Ish boshlanishida va oxirida katokning agregatlari va mexanizmlarining umumiy ishlash qobiliyatini tekshirish va ko'rikdan o'tkazish.
	Ish boshlanishida va oxirida hisobot shakllarini to'ldirish.
	Statik va vibratsion tekis valikli katokni, texnologik uskuna, mexanizmlar va boshqaruv tizimlarini texnik ekspluatatsiya qoidalariga rioya qilgan holda ishlatish.
	Yo'l harakati qoidalariga rioya qilish.
	Mehnatni muhofaza qilish, ishlab chiqarish gigiyenasi, elektr xavfsizligi, yong'inga va ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilish.
	Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish.
	Jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish.
	Yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish.
	Bilimlar:
	Statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katokning detallarini, tugunlarini, mexanizmlari va korpus elementlarini chang, loy,

	bitumli bog'lovchi materiallar va turli ifloslanishlardan yuvish va tozalash usullari va texnikalari. Statik va vibratsion tekis valikli katok va uning tarkibiy qismlarining qurilishi, ishlash prinsipi va texnik xususiyatlari. Statik va vibratsion tekis valikli katokni ishga tayyorlash va ishlatish bo'yicha ekspluatatsiya qo'llanmasidagi talablar. Statik va vibratsion tekis valikli katokni smena davomida va davriy texnik xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan texnik diagnostika vositalari, texnologik uskuna, ustaxona va o'lchov asboblari ekspluatatsiyasi bo'yicha talablar. Statik va vibratsion tekis valikli katokni texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari. Statik va vibratsion tekis valikli katokni smena davomida va davriy texnik xizmat ko'rsatish operatsiyalari va texnologiyasi ro'yxati. Statik va vibratsion tekis valikli katokni texnik xizmat ko'rsatishda ishlatiladigan ustaxona va o'lchov asboblari, texnologik va diagnostik uskuna asosiy turlari, turlari va maqsadi. Statik va vibratsion tekis valikli katokning kichik tugunlarini demontaj (montaj) qilish qoidalari va operatsiyalar ketma-ketligi. Statik va vibratsion tekis valikli katokning ishchi uskunasi montaj (demontaj) qilish qoidalari va operatsiyalar ketma-ketligi. Statik va vibratsion tekis valikli katokni texnik xizmat ko'rsatishda ishlatiladigan yoqilg'i-moylash va boshqa materiallarning turlari, xususiyatlari va sarf norma. Katokni xizmat ko'rsatishda yoqilg'i-moylash va materiallarni tashish, qabul qilish, saqlash va katokni boshqarish texnik vositalari qurilishi. Statik va vibratsion tekis valikli katokning ishchi organining tez eskiruvchi detallarini, tugunlari va elementlarini almashtirish tartibi va qurilishi. Elektrotexnika, avtomatika, elektro- va tele-boshqaruv asoslari. Katok mashinisti bajaradigan asosiy ishlar darajasidan bir daraja pastroq tariflangan elektroslesar (slesar) bilimlari doirasida elektroslesar ishi. Statik va vibratsion tekis valikli katokning texnik holatini masofadan monitoring qilish tizimlari va integratsiyalangan diagnostika vositalari qurilishi, ishlash prinsipi va ekspluatatsiya qoidalari. Statik va vibratsion tekis valikli katokning ishlash qobiliyatini ko'rsatadigan diagnostik parametrlarning ruxsat etilgan diapazonlari.
--	---

		Statik va vibratsion tekis valikli katokni qisqa va uzoq muddatli saqlash qoidalari.
		Statik va vibratsion tekis valikli katokni konservalash va dekonsersvalash qoidalari.
		Yo'l qurilish texnikasi va qurilish mexanizatsiyasi sohasida ishlatiladigan terminologiya.
		Mehnatni muhofaza qilish, ishlab chiqarish gigiyenasi, elektr xavfsizligi, yong'in va ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilish.
		Yong'in o'chirish vositasi yoki mavjud vositalardan foydalanib yoqilg'i-moylash va boshqa materiallar yonishi holatida yong'inni o'chirish qoidalari.
		Favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya rejasi va harakatlar tartibi.
		Ishlarni xavfsiz olib borish usullari.
		Mashinalarni xavfsiz ekspluatatsiya qilish va ishlarni xavfsiz bajarish bo'yicha ko'rsatmalar.
		Yo'l harakati qoidalari.
		Statik va vibratsion tekis valikli katokni temir yo'l platformalari, treylerlar va ularning orqali tashish qoidalari.
		Statik va vibratsion tekis valikli o'zini-o'zi harakatlantiruvchi katokning detallarini, tugunlarini, mexanizmlari va korpus elementlarini chang, loy, bitumli bog'lovchi materiallar va turli ifloslanishlardan yuvish va tozalash usullari va texnikalari.
		Statik va vibratsion tekis valikli katok va uning tarkibiy qismlarining qurilishi, ishlash prinsipi va texnik xususiyatlari.
		Statik va vibratsion tekis valikli katokni ishga tayyorlash va ishlatish bo'yicha ekspluatatsiya qo'llanmasidagi talablar.
		Yoqilg'i quyish vositalarini ishlatish bo'yicha ekspluatatsiya qo'llanmasi talablar.
		Statik va vibratsion tekis valikli katokni texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari.
		Statik va vibratsion tekis valikli katokni smena davomida va davriy texnik xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan texnik diagnostika vositalari, texnologik uskuna, ustaxona va o'lchov asboblari ekspluatatsiyasi bo'yicha talablar.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1.Katokni boshqarish va ish jarayonida xavfsizligini ta'minlash.
		2.Katok va uning tarkibiy qismlarini texnik ko'rikdan o'tkazish va ishga tayyorligini tekshirish.
		3.Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish va ta'mirlash uchun tegishli choralarni ko'rish.
		4.Ishni belgilangan marshrut va texnologik tartibga muvofiq amalga oshirish.

		5.Katokning texnik holatini mustaqil baholash va profilaktik xizmat ko'rsatish.
		6.Ish jarayonini muvofiqlashtirish va zarur hollarda operativ qaror qabul qilish.
		7.Favqulodda holatlarda tezkor chora ko'rish va xavfsizlikni ta'minlash.
		8.Ish jarayonida texnik reglamentlar va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish.
Texnik va/yoki texnologik talab		Simulyatorlar – mashinistni o'qitish uchun virtual boshqaruv muhiti, nosozliklar va favqulodda holatlarni mashq qilish imkoniyati. Kompyuter va dasturiy ta'minot – katok boshqaruvi, signalizatsiya, monitoring va marshrut rejalashtirish bo'yicha o'quv dasturlari. Aloqa va signalizatsiya tizimlari – ish jarayonini muvofiqlashtirish, xavfsizlik va dispetcherlik tizimlarini o'rgatish uchun. Amaliy poligon yoki ishchi maydon – haqiqiy sharoitda mashinist amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish uchun.

Kasbning nomi:	Asfalt yotqizuvchi, pnevmokatok mashinisti	
Mashg'ulot nomining kodi:	83423	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3 daraja uchun ish staji talab etilmaydi, ammo kamida 3 oy amaliy stajirovkadan o'tgan bo'lishi zarur;	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: - Yoshi 18 dan kichik bo'lmagan shaxslar; - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; - Yong'in xavfsizligi choralari bo'yicha o'qitish; - Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'qitish va yo'riqnomalar, mehnatni muhofaza qilish talablari bo'yicha bilimlarni tekshirish, shuningdek, zarurat bo'lganda sanoat xavfsizligi bo'yicha o'qitish; Ishga munosabat va xulq-atvor: - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof muhitni muhofaza qilish, sanitariya gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; - jamoa bilan inoq ishlash; - o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	O'rta maxsus ta'lim, umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Asfalt yotqizuvchi mashinani trotuarlar, piyodalar va velosiped yo'llari, shahar yo'l tarmoqlari va mexanizatsiya bazasida asfalt qoplamalarni yotqizish joyiga kuzatib borish.	
	2. Asfalt qoplamalarni yotqizish bo'yicha mexanizatsiyalashgan ishlar boshlanishidan oldin va ish	

